



2023-yil “ 11 ” may

40 i/ch-sonli

B U Y R U Q

Jamiyatda ochiqlik bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 14-iyundagi “Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqlik darajasini oshirish va baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-154-son farmoni ijrosini ta‘minlash maqsadida,

B U Y U R A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan 2022-yilning ikkinchi yarmi uchun Ochiqlik indeksi natijalari e‘lon qilinganligi, Jamiyat 100 foizdan 59 foiz olgan holda “sariq” toifadagi samaradorlik ko‘rsatkichiga ega bo‘lganligi, Agentlik tomonidan ko‘rsatkichni yaxshilash bo‘yicha tavsiyalar berilganligi (ilova qilinadi) ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. Jamiyatning:

- Matbuot kotibi (S.Mirzayeva)ga Ochiqlik indeksi baholash mezonlari bo‘yicha boshqarma va bo‘limlardan ma‘lumotlar olish va umumlashtirish;
- AKTni joriy etish va rivojlantirish bo‘limi (T.Eshonqulov)ga umumlashtirilgan ma‘lumotlarni Jamiyat rasmiy veb saytida joylashtirib borilishini ta‘minlash vazifasi yuklatilsin.

3. Baholash mezonlari bo‘yicha mas‘uliyat quyidagi tartibda belgilansin:

1-baholash mezoni – Davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlikni ta‘minlashga mas‘ul bo‘lgan xodimlar faoliyatining samaradorligi – Matbuot kotibi (S.Mirzayeva);

2-baholash mezoni – Davlat organlari va tashkilotlarining rasmiy veb-saytlarida axborotlarni joylashtirish va elektron davlat xizmatlari ko‘rsatish holati – AKTni joriy etish va rivojlantirish bo‘limi (T.Eshonqulov);

3-baholash mezoni – Ijtimoiy ahamiyatga molik ma‘lumotlarni qonunchilikda belgilangan axborot resurslarida e‘lon qilish va jamoatchilik oldida hisobdorlik tizimining yo‘lga qo‘yilishi – Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo‘limi (Sh.Qodirova), Xo‘jalik ta‘minoti bo‘limi (X.Xamdamov), Matbuot kotibi (S.Mirzayeva).

4-baholash mezoni – Budjet jarayonining ochiqligini ta‘minlashga oid ma‘lumotlarning rasmiy veb-saytda joylashtirilishi – Moliyaviy-iqtisodiy tahlil

boshqarmasi (E.Qurbonov), Buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'limi (Sh.Qodirova), Xo'jalik ta'minoti bo'limi (X.Xamdamov);

5-baholash mezon – Ochiq ma'lumotlar portalida ma'lumotlarning joylashtirilishi – AKTni joriy etish va rivojlantirish bo'limi (T.Eshonqulov);

6-baholash mezon – Ommaviy kommunikatsiya texnologiyalarining joriy qilinishi – AKTni joriy etish va rivojlantirish bo'limi (T.Eshonqulov);


7-baholash mezon – Korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olishda ochiqlik tamoyillaridan foydalanish holati – Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat va maxsus bo'lim (vakant), Yuridik boshqarma (Sh.Maxmudov);

8-baholash mezon – Jamoatchilik kengashining faoliyati samaradorligi – Murojaatlar bilan ishlash va ijro intizomi bo'limi (D.Qurbonboyev), Yuridik boshqarma (Sh.Maxmudov).

4. Baholash mezonlari bo'yicha mas'ul etib tayinlangan boshqarma va bo'limlar har yarim yillik yakuni bo'yicha ma'lumotlarni keyingi oying 5-sanasiga qadar (5-iyul va 5-yanvar) Jamiyat matbuot kotibi (S.Mirzayeva)ga taqdim etilishini ta'minlasin.

5. Mazkur buyruqning ijrosini ta'minlashni o'z zimnamda qoldiraman.

Boshqaruv raisi



N. Otajonov